

HUDUDDA QURILISH FAOLIYATINI BOSHQARISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI

Abdusamatov B.K.

Sam DAQU “Biznesni boshqarish” kafedrası dotsenti.

Tolibov A.Z.

Sam DAQU Biznes boshqarish mutaxassisligi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17895418>

Annotatsiya. Maqolada hududda qurilish faoliyatini boshqarishda tadbirkorlik faoliyatining roli va o'rnini uning echimlari, hamda qurilish majmuasida tadbirkorlikni rivojlantirsa nimalarga e'tibor berish kerakligi va tadbirkorlikni rivojlantirsa qurilishda qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkinligi, hamda bugungi kunda tadbirkorlar tomonidan qilinayotgan o'zgarishlar xususidagi ishlarga yondashilgan va hudud qurilishini samarali boshqarishda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish asosida raqobat rivojlanishi negizida nimalar bo'lishi mumkinligi borasida fikrlar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish, tadbirkorlik, raqobat, qurilish industriyasi, qurilish mahsuloti, strategiya, konsalting, investitsiyalar, monitoring qilish, samaradorlik.

Аннотация. В статье рассматривается роль и место предпринимательства в управлении строительной деятельностью региона, пути ее решения, на что следует обратить внимание при развитии предпринимательства в строительном комплексе, какие изменения могут произойти в строительстве, если развивать предпринимательство, и какие изменения осуществляют предприниматели сегодня, а также что можно сделать для эффективного управления строительством региона на основе организации предпринимательской деятельности и даются рекомендации.

Ключевые слова: строительство, предпринимательство, конкуренция, строительная индустрия, строительный продукт, стратегия, консалтинг, инвестиции, мониторинг, эффективность.

Abstract. The article discusses the role and place of entrepreneurship in managing construction activities in the region, its solutions, what to pay attention to when developing entrepreneurship in the construction complex, what changes can occur in construction if entrepreneurship is developed, and what changes are being made by entrepreneurs today, and what can be done to effectively manage the construction of the region based on the organization of entrepreneurial activity and recommendations are given.

Key words: construction, entrepreneurship, competition, construction industry, building product, strategy, consulting, investment, monitoring, efficiency.

Kirish: Qurilish tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining bir qismini egallab, aholining katta qismini ish bilan ta'minlaydi va byudjetni to'ldirishga katta ulush qo'shadigan sohalarandir.

Jahon amaliyotida, qurilish industriyasidagi tadbirkorlar qurilish bozorini rivojlantirishga, umuman sohada raqobatni kuchaytirishga hissa qo'shadigan sub'ektlardan hisoblanadi.

Tadbirkorlik - bu mahsulot ishlab chiqarish yoki sotishdan, xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish uchun etarli imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Ya'ni "Qurilish sohasini texnik tartibga solish. Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish.

Respublikada qurilish sohasini va qurilish materiallarini ishlab chiqarish kompleksini yanada rivojlantirish, hududlarda aholi uchun arzon uy-joylar qurilishini ta'minlash, uy-joy qurilishi bozorida talab va taklif nomutanosibligini qisqartirish maqsadida, 2022 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab - quvvatlashning qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi [2].

Demak, qurilish korxonalarining quvvatini optimal darajaga va mehnat unumdorligini oshirish uchun qurilish industriyasi korxonalari o'rtasida integratsiya va kooperatsiya aloqalarining yangi zamonaviy shakllarini rivojlantirish zarur. Hozirgi vaqtda integratsion aloqalarni rivojlantirishning shunday shakllaridan biri qurilishda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: hududiy qurilishda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, qurilish tashkilotlarini yagona ishlab chiqarish va sotish tarmog'iga integratsiya qilish orqali hududda mavjud ishlab chiqarish omillarining maqbul aloqalarini ta'minlash va korxonalar o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari tuzilmasini takomillashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, qurilish kompaniyalari birlashmasining ushbu tadbirkorlik faoliyatini potensial ishtirokchilariga axborot va konsalting yordami orqali qurilish faoliyatini yanada samaraliroq tartibga solishning zamonaviy yo'llarini ham yaratib berish imkoniyatiga egadir.

"Qurilish korxonalarining viloyat iqtisodiyotidagi o'rni shundan iboratki, qurilish mahsulotlari viloyatdagi iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, asosan takror ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi, bu esa investitsiyalar va yangi ob'ektlar va inshootlar qurish hisobiga ta'minlanadi" [3].

Ta'kidlash joizki, qurilish industriyasining rivojlanishini mamlakat iqtisodiyotining asosiy va yordamchi tarmoqlar majmuasini qamrab olgan boshqa tarmoqlaridan ajratib bo'lmaydi.

Qurilishdagi tadbirkorlik faoliyati xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi faoliyatiga nisbatan, ayniqsa yaratilgan mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. "Chunki qurilish o'z mohiyatiga ko'ra ishlab chiqarish infratuzilmasi, turar-joy binolari va ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlardagi binolarni yaratish va rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy kompleksni asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv qismi bilan ta'minlaydigan ko'p tarmoqli faoliyatni nazarda tutadi" [4].

Mintaqaviy qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ma'lum bir tarzda tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning murakkab tarmoqlararo hududiy birligi sifatida tavsiflash mumkin [5].

A.N. Asaulning fikricha "tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo'lib, uning mohiyati jamiyatning o'ziga xos ehtiyojlariga bo'lgan talabini rag'batlantirish va qondirishdan iborat, bozor muvozanatini buzish orqali raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lish orqali uning a'zolari tadbirkorlik bozor muvozanatining buzilishiga olib keladigan innovatsiya kabi muhim xususiyatga ega bo'lib, biznesda o'z faoliyati uchun foydalanadi [6].

Tadbirkorlik faoliyati – bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tomonidan qonunlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki boshqa vakillik tashkilotlari tomonidan belgilangan ma'lum me'zonlar asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir [8].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha tadbirkorlik bu – qurilish ishlab chiqarishning barcha omillaridan foydalanish qobiliyatidan iborat bo'lgan inson resurslaridan va mehnatidan samarali foydalanish tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotning metodologik asosini mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar tashkil etdi. Mualliflar olimlar va amaliyotchilar tomonidan nashr etilgan yondashuvlarni o'rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanganlar.

Taxlil va natijalar: 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatida jami 14 017,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi.

2024-yil bo'yicha 14 017,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, shu jumladan: yirik qurilish tashkilotlari - 2 257,9 mlrd so'mlik, kichik va mikrofirmalar - 9 567,1 mlrd so'mlik va norasmiy sektor tomonida - 2 192,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilgan.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 11 759,1 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 83,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 116,7 % ni tashkil qildi. Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, 2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda.

Yillar kesimida 2024-yilda - 2046 ta, 2023-yilda – 2535ta, 2022 – yilda -3280ta, 2021 – yilda - 3 079 tani tashkil etmogan. Qurilish sohasi viloyatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda 91,9 % ni tashkil etgan [8].

Xulosa va takliflar: xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotda tub o'zgarishlar bo'layotgan sharoitida innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni, aholi farovonligini oshirishdagi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyatiga halaqit berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- hududlardagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarning qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish yo'llarini izlab topish;

- hududlardagi kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish hamda bu boradagi ilg'or chet el tajribalarini qo'llash;

- hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish choratadbirlarini qo'llash, xususan, qurilish sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralari izlab topish va innovatsion tadbirlarni qo'llash;

- hududlardagi eksportga qurilish mahsulotlarini chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirishni ta'minlash yo'llarini izlab topish;

Shuningdek, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash asosida samarai boshqarish mumkin.

Bizning fikrimizcha qurilish majmuasini samarali boshqarish uchun asosiy vositalar:

- hududdagi qurilish tashkilotlari va investitsiya ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini mukkamal o'rganish (axborotlarga ega bo'lish);
- yirik kompaniyalar va birlashmalar guruhini rivojlantirish dasturi;
- viloyatdagi barcha investitsiya ob'ektlarida hududiy qurilish tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash dasturi;
- qurilish tashkilotlarining har bir guruhi uchun ilmiy ishlanmalar, ishlab chiqish variantlari;
- aniq qurilish korxonalarini rivojlantirish bo'yicha konsalting tizimi;
- amaliy yordam va innovatsiyalar tizimi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.Toshkent sh., 2022 yil 28 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab - quvvatlashning qo'shimcha chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-139-son Qarori. Toshkent sh. 2022 yil 21 fevral.
3. Бойко Т.С., Фролова Н.С. Строительный комплекс России и региона в условиях ВТО//Проблемы современной экономики. - М., 2013. - № 2 (46). - С.246-250.
4. Старков Д.А. Развитие строительного комплекса региона//Вестник ОГУ. - Оренбург, 2011. - №13 (132). - С.434.
5. Старков Д.А. Развитие строительного комплекса региона//Вестник ОГУ. - Оренбург, 2011. - № 13 (132). - С.434.
6. Бабко А.Т. Генезис организационной сущности предпринимательской структуры//Вестн. ИНЖЭКОНА. Сер.: Экономика. 2006. Вып. 2(11).

7. Муминов Н.Г., Хамидова Н.М. Хуацяо как специфическая форма развития предпринимательства в Восточной Азии // Вопросы экономики и управления. Международный научный журнал (Россия). № 3 (14) / 2018. С.4-6.
8. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
9. Abdusamatov, B. K. (2023). ROLE OF CLUSTER IN INNOVATIVE MANAGEMENT OF THE CONSTRUCTION NETWORK. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 667-672.
10. Abdusamatov, B. K., Egamov, R. M., Abdusamatov, Sh. B. (2022). Level of competitiveness of building products to increase innovative success. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(6), 1-5.
11. Эгамов, Р. М., Абдусаматов, Б. К. (2021). Курилиш тармоғини ривожлантиришда инновацион фаолият иқтисодий категория сифатида. *DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR*, 161.
12. Abdusamatov, B. K., Egamov, R. M., Abdusamatov, Sh. B. Some of the Improvements in Entrepreneurship in the Construction Industry. *JournalNX*, 189-193.